

№ 04-5/30  
2026 y. "4" iyun

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ  
Kuzatuv kengashining  
2026-yil “26” may dagi  
25 sonli yig’ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi  
 Sh. Nosirov



## “ANOR BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BOSHQARISH SIYOSATI

## MUNDARIJA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR	3
2-BOB. SIYOSATNING QO'LLANISH DOIRASI	3
3-BOB. ASOSIY TAMOYILLAR VA QOIDALAR	5
4-BOB. XODIMLARNING MAJBURIYATLARI VA VAKOLATLARI	6
5-BOB. AXBOROTNING MAXFIYLIGI	7
6-BOB. YAKUNIY QOIDALAR	8

## **1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

“ANOR BANK” AJning manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) Bankning faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibini belgilaydi. Ushbu Siyosat quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni;

“Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yhat raqami 3254, 30 iyun 2020 yil);

ISO 37001:2025 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar”;

“ANOR BANK” AJ (keyingi o‘rinlarda – Bank) Ustavi.

## **2-BOB. SIYOSATNING QO‘LLANISH DOIRASI**

1. Mazkur Siyosat Bankda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish masalalaridagi asosiy ichki hujjat hisoblanadi va egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat‘iy nazar Bankning barcha xodimlari tomonidan so‘zsiz rioya qilinishi shart.

2. Bank mazkur Siyosat yordamida xodimlarga, shu jumladan Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a‘zolariga manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yoki boshqarish bo‘yicha tegishli tamoyillar va qoidalar, shuningdek, ushbu tamoyillar va qoidalarni qanday amalga oshirish kerakligi belgilab beradi.

3. Mazkur Siyosat Bankning barcha xodimlariga, shu jumladan Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a‘zolariga va xodimlarning shaxsiy manfaatlari Bank manfaatlariga zid kelishi mumkin bo‘lgan har qanday holatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

4. Bank o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida xodimlarning biznes manfaatlari va ularning qarorlarini qabul qilishiga shaxsiy manfaatlar ta‘sir qilmasligiga intiladi.

5. Bankning Komplayens-nazorat boshqarmasi manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rib chiqadi, muvofiqlashtiradi va boshqarishni nazorat qiladi hamda Bank xodimlariga tegishli amaliy ko‘rsatmalar beradi.

6. Xodimlarning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) yoki ularning yaqin qarindoshlari manfaatlari ularning Bankda qaror qabul qilishga ta‘sir qilganda, ta‘sir qilishi mumkin bo‘lganda yoki ta‘sir qilishi ehtimoli bo‘lganda, manfaatlar to‘qnashuvi holati yuzaga keladi.

Manfaatlar to'qnashuvi sharoitlarida xodimlar mulohazalar yuritishi, qarorlar qabul qilishi yoki harakatlarni amalga oshirishini, xizmatlarni ob'yektiv va samarali bajarishni qiyinlashtiradi, shuningdek ularga nisbatan huquqiy va tartibga solishga oid oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, xodimlar:

- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni o'z vaqtida aniqlay olishlari yoki shubha tug'ilganda tegishli tartibda maslahat olishlari;
- imkon qadar manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish choralarini ko'rishlari;
- mavjud yoki yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'g'risida belgilangan tartibda darhol xabar berishlari kerak.

7. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**aloqador shaxslar** – Bank xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar. Aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

**kronizm** – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat (lavozim mavqesidan) va obro'sidan foydalanish;

**manfaatlar to'qnashuvi** – Bank xodimining shaxsiy (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish** – xodimlar tomonidan potensial yoki real manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida e'lon qilish tartib-taomili;

**manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish** – Bank tomonidan xodimlarning lavozim majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligi holati va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlar) Bank manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoki bartaraf etish;

**mahalliychilik** – shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

**nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) – o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar xisoblash, Bank manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**potensial manfaatlar to'qnashuvi** – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Bank bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Bankning manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va Bank xodimlari tomonidan lavozim majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**real manfaatlar to‘qnashuvi** – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) Bank bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari) Bank manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo‘lgan vaziyat;

**urug‘-aymoqchilik** – Bank xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan sub’yektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

**favoritizm** – Bank xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Bankda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta‘til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko‘rib chiqishda ketma-ketlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

**shafelik** – Bank xodimining lavozimi yuqoriroq bo‘lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

**sovg‘a va/yoki shaxsiy naf** – do‘stlik yoki minnatdorchilik belgisi sifatida taqdim etilgan nominal qiymatdagi buyumlar yoki xizmatlarni anglatadi. Sovg‘a buning evaziga beriladigan naf yoki mukofotni kutmasdan ochiq tarzda beriladi. Odatda biznes aloqalarini boshlash, mustahkamlash yoki rivojlantirish uchun beriladi yoki olinadi. Agar ularning qiymati BHM miqdorining bir baravaridan oshsa, xodimlar sovg‘alar yoki shaxsiy imtiyozlarni qabul qilmasliklari kerak;

**yaqin qarindoshlar** – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya‘ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa shaxslar

**rahbariyat** – Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi ko‘rinishidagi kollegial organlari va ularning a‘zolari.

### 3-BOB. ASOSIY TAMOYILLAR VA QOIDALAR

8. Bank xodimlari manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilishlari shart:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- korporativ manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yish;
- oshkoralik, vijdonlilik, xolislik asosida qarorlar qabul qilish;

- potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning shartligi;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktik choralarning ustuvorligi;
- manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini ko‘rib chiqish va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi;
- manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko‘rib chiqish, baholash va hal qilishga xolis yondashuv;
- belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning maxfiylikini ta‘minlash;
- agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tegishli tartibda xabar bergan hamda Bank manfaatlari foydasiga o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo‘lsa, uni real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo‘shatilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;
- shaffoflik va hisobdorlik;
- shaxsiy javobgarlik va jazoning muqarrarligi.

9. Xodimlar Bank Boshqaruvining oldindan roziligisiz boshqa biron bir ish beruvchiga xizmat ko‘rsatmasligi, shuningdek, uchinchi shaxslarning manfaatlariga xizmat qiladigan va Bank manfaatlari doirasiga kiradigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanmasligi kerak. Agar xodimning biron bir yaqin qarindoshi bunday faoliyatga jalb etilsa, xodim zudlik bilan o‘zining bevosita rahbariga, Personalni boshqarish departamentiga yoki Komplayens-nazorat boshqarmasiga xabar berishi kerak, hamda Bank uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarining oldini olish uchun zarur choralarni ko‘rishi kerak.

10. Xodimlar yaqin qarindoshlari bilan nazorat yoki tekshiruv munosabatlarida bo‘lmasliklari (masalan, ishga yollash shartlariga ta‘sir qilishlari) yoki yaqin qarindoshlarga nisbatan har qanday yollash (shu jumladan ichki va tashqi yollash, shuningdek xodimni Bank ichida boshqa joyga o‘tkazish) to‘g‘risida qaror qabul qilishda ishtirok etmasliklari kerak.

11. Xodimlar ularning shaxsiy manfaatlari Bank manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday qarorlar qabul qilishda ishtirok etmasliklari (ya‘ni rad etishi), shubha tug‘ilgan taqdirda esa Personalni boshqarish departamenti yoki Komplayens-nazorat boshqarmasiga maslahat so‘rab murojaat qilishlari kerak.

#### **4-BOB. XODIMLARNING MAJBURIYATLARI VA VAKOLATLARI**

12. Bank xodimlari o‘zlarining lavozim majburiyatlarini bajarishida va (yoki) Bankning manfaatlarini ifodalashda mazkur Siyosatda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o‘zlarini saqlashlari shart.

13. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun Bank xodimlari:

- mazkur Siyosat talablariga rioya qilishi;
- faqat Bank manfaatlarini ko‘zlashi;

- belgilangan muddatlarda va zaruratga ko‘ra taqdim etilgan ma‘lumotni o‘z vaqtida yangilashlari;
- o‘z mansab va xizmat mavqeidan faqat Bank manfaatlari yo‘lida foydalanishi;
- Bank manfaatlari zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlar to‘g‘risida Bankning – Komplayens-nazorat boshqarmasini xabardor qilishi;
- nepotizm (qarindoshlik), shafelik, favoritizm, kronizm, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilikning namoyon bo‘lishiga qat‘iy chek qo‘yishi;
- potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq oshkor qilishi;
- o‘zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning to‘liq ro‘yxatini, o‘zining va ularning nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki haqidagi ma‘lumotlarni halol, to‘liq va vijdonan oshkor qilishi;
- agarda Bankning boshqa xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligiga oid ma‘lumotga ega bo‘lgan taqdirda ichki hujjatlarda belgilangan tartibda xabar berishi;
- harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash, shuningdek ma‘lumotlarni oshkor qilishi shart.

**14.** Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida Bank xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi kerak, agar:

- xodimning bevosita bo‘ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar bo‘lsa;
- belgilangan tartibda hamkorlik qilinayotgan tashkilotda xodimning yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslar faoliyat yuritisa yoki hamkorlik qilinayotgan mansabdor shaxs xodimning yaqin qarindoshi va (yoki) aloqador shaxs bo‘lsa;
- xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini hisoblash va to‘lash, mukofotlar, ustamalarga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa.

Mazkur ro‘yxat yakuniy hisoblanmaydi. Bank xodimi yaqin qarindoshlari va (yoki) aloqador shaxslarga nisbatan (ular faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga) har qanday qarorlar qabul qilish (imtiyozlar berish, nazorat qilish va shu kabilar) holati potensial manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollarda, Bank xodimi manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida belgilangan tartibda xabar berishi lozim bo‘ladi.

**15.** Egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar, barcha xodimlar, mazkur Siyosatning talablariga rioya qilish, shuningdek, o‘z manfaatlarining to‘qnashuvi to‘g‘risida Bankga o‘z vaqtida va to‘liq ma‘lumot berish bo‘yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

## **5-BOB. AXBOROTNING MAXFIYLIGI**

**16.** Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Bankning xodimlarida manfaatlar to‘qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bilan Bankga murojaat qilinganida uni ko‘rib chiqish – Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan Personalni boshqarish departamenti bilan hamkorlikda mazkur Siyosat va boshqa ichki hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

17. Manfaatlarni to'qnashuvi fakti yoki gumoni haqidagi xabar bergan jismoniy va yuridik shaxslar, xususan Bank xodimlari shaxsi maxfiyligi ta'minlanadi.

18. Manfaatlarni to'qnashuvini hal qilishda qatnashadigan xodimlar olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va ushbu ma'lumotlardan faqat ko'rib chiqish, hisobga olish va hal etish choralarini ko'rish hamda ushbu jarayonni nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishini ta'minlashi lozim.

## 6-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

19. Mazkur "ANOR BANK" AJning manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish Siyosati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

20. Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti mazkur Siyosat talablariga rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti Siyosatning ilg'or tajribalar asosida takomillashtirib borilishini ta'minlaydi.

21. Komplayens-nazorat boshqarmasi Siyosatni Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan muddatlarda yoki zaruratga ko'ra Siyosatning maqsadlari yo'lida zarur o'zgarishlar va qo'shimchalarni kiritish, shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlari va ichki siyosatga, Bankning tartib-taomillariga muvofiqligini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqish taklifini Bank kuzatuv kengashiga kiritadi.

22. Ushbu Siyosat tasdiqlangan kundan e'tiboran Bank Kuzatuv Kengashining 2020 yil 10 sentyabrdagi 2-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatida manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish Siyosati" o'z kuchini yo'qotadi.

### Kiritildi:

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i

D. Xushnazarov

### Kelishildi:

Boshqaruv raisi

Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari

E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari

S. Xan

Boshqaruv raisi o'rinbosari


M. Avazov

Yuridik boshqarma boshlig'i



T. Zanaxov

Boshqaruvchi direktor



A. Bakiyev

Bosh buxgalter



U. Babayev

Ichki audit departamenti direktori




S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori



M. Pulatova

Risk menejmenti departamenti direktori



D. Ibragimova

Personalni boshqarish departamenti direktori v.b

A. Ilxomjonov